

**FAVQULODDA VAZIYATLARGA TAYYORLASHDA ISH BILAN BAND
BO'LMAGAN AHOI TOIFALARI VA ULARNING IJTIMOYIY-DEMOGRAFIK
XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNI AHAMIYATI**

f.f.d. Phd Mirzayev A.R., Sotvoldiyev.A.A.

*(Fuqaro muhofazasi instituti FVDtni boshqarish va rejalashtirish
kafedrası dotsenti, 2-bosqich magistranti)*

**THE IMPORTANCE OF STUDYING CATEGORIES OF THE UNEMPLOYED
POPULATION AND THEIR SOCIO-DEMOGRAPHIC CHARACTERISTICS IN
PREPARING FOR EMERGENCY SITUATIONS.**

PhD, Mirzayev A.R., Sotvoldiyev A.A.

*Associate Professor, Department of Management and Planning of the State System for
Emergency Prevention and Response, Civil Protection Institute;
Second-Year Master's Student*

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarda (FV) ish bilan band bo'lmagan aholi toifalari va ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlari tahlil qilinadi. Global miqyosda favqulodda vaziyatlar sonining ortishi va iqlim o'zgarishi fonida aholi xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganligi qayd etiladi. Tadqiqotda Milliy statistika ma'lumotlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Pensiya jamg'armasi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha rasmiy hisobotlar tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston ish bilan band bo'lmagan aholisi, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar va pensiya oluvchilar jami 10,864 mln. kishini tashkil etishi, bu umumiy aholi sonining taxminan 28–30% ini tashkil qilishi aniqlanadi. Tadqiqot shuningdek, hududiy farqlarni, ijtimoiy faollik, axborot texnologiyalari va jismoniy imkoniyatlardagi zaifliklarni aniqlab, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikda maxsus yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Maqola ish bilan band bo'lmagan aholining FVga tayyorgarlikdagi o'rni va xavf ostidagi aholi toifalarini aniqlash hamda davlat siyosatini samarali shakllantirish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi, favqulodda vaziyatlar, ijtimoiy-demografik tavsiflar, nogironlar, qariyalar, iqtisodiy faol bo'lmagan aholi, ishsizlik, aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash.

Аннотация. В статье анализируются категории неработающего населения и их социально-демографические характеристики в Республике Узбекистан в случае возникновения чрезвычайных ситуаций (ЧС). В глобальном масштабе отмечается, что увеличение числа чрезвычайных ситуаций и обеспечение безопасности населения на фоне изменения климата стало приоритетом государственной политики. В ходе исследования были проанализированы данные Национальной статистики, Министерства по борьбе с бедностью и занятости, Пенсионного фонда и официальных отчетов о лицах с ограниченными возможностями. Согласно полученным результатам, по состоянию на конец 2024 года неработающее население Узбекистана, включая инвалидов и получателей пенсий, получило в общей сложности 10,864 млн. численность населения определяется как составляющая около 28-30% от общей численности населения. В исследовании также выявляются территориальные различия, уязвимости

в социальной активности, информационных технологиях и физических возможностях, что указывает на необходимость особого подхода к обеспечению готовности к чрезвычайным ситуациям. В статье приводятся научные и практические рекомендации относительно роли безработного населения в подготовке к вступлению в силу
Закона

и для выявления категорий населения, подверженных риску, а также для эффективной разработки государственной политики.

Ключевые слова: Экономически неактивное население, чрезвычайные ситуации, социально-демографические характеристики, инвалиды, пожилые люди, экономически неактивное население, безработица, подготовка населения.

Abstract. The article analyzes the categories of non-working population and their socio-demographic characteristics in the Republic of Uzbekistan in case of emergency (FV). On a Global scale, it is noted that the increase in the number of emergencies and ensuring the safety of the population against the background of climate change has become a priority of state policy. The study analyzed data from National Statistics, the Ministry of poverty reduction and employment, the Pension Fund and official reports on persons with disabilities. According to the results, as of the end of 2024, the non-working population of Uzbekistan, including persons with disabilities and pension recipients, received a total of 10,864 million. the population is determined to be about 28-30% of the total population. The study also identifies territorial differences, vulnerabilities in social activity, information technology, and physical capabilities, suggesting the need for a special approach in emergency preparedness. The article provides scientific and practical recommendations for the role of the unemployed population in the preparation for the FV and for the identification of categories of the population at risk, and for the effective formulation of Public Policy.

Key words: Economically inactive population, emergency situations, socio-demographic characteristics, people with disabilities, the elderly, economically inactive population, unemployment, population training.

Kirish.(Introduction) Globallashuv, urbanizatsiya va iqlim o'zgarishi jarayonlari fonida favqulodda vaziyatlar (FV) soni va murakkabligi ortib borayotgan bir davrda, aholining xavfsizligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. BMTning Favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish bo'yicha hisobotida 1980-2020-yillar oralig'ida global miqyosda ofatlar soni ikki baravar ortgani, iqlim bilan bog'liq ofatlar esa uch baravar ko'paygani qayd etilgan [8]. O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, aholining barcha qatlamlari bu jarayonda bir xil darajada faol emas. Shu bois, ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini o'rganish, favqulodda vaziyatlarda tayyorgarlik tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNDP va OECDning favqulodda vaziyatlardagi zaif aholi qatlamlari bo'yicha yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, daromadi past, ijtimoiy faolligi sust va jismoniy imkoniyati cheklangan guruhlar FV paytida eng ko'p zarar ko'radigan toifa sanaladi [9]. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni alohida o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yoki normativ-huquqiy hujjatlarida aynan ish bilan band bo'lmagan aholining tarkibi va toifalari alohida ajratib ochib, berilmagan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son qaroriga asosan "Aholining barcha

qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to'g'risidagi NIZOM"da "Ish bilan band bo'lmagan aholi" jumlasini qo'llaniladi[1].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O'RQ-642-son "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalarga ta'rif beriladi:

band bo'lmagan aholi (band bo'lmagan shaxslar) - haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan shaxslar;

Bu ta'rif xalqaro me'yorlarga juda yaqin. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) "inactive population" atamasini ish bilan band bo'lmagan, mehnat bozorida faol qatnashmayotgan shaxslar sifatida belgilaydi [10]. Bu uyg'unlik O'zbekiston mehnat statistikasi bilan jahon standartlari orasidagi moslikni ta'minlaydi.

ishsizlik - mehnat bozorida talabga ega bo'lmagan mehnatga layoqatli ishchi kuchining mavjudligi;

ish qidirayotgan shaxs — ishga joylashishda ko'mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va u yerda ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olingan shaxs;

Bandlik - fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir[2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi 1011-son qarorida esa, iqtisodiy faol bo'lmagan aholi tushunchasi, aholining mehnat bilan bandligini o'rganish tartibi hamda iqtisodiy faol bo'lmagan aholi sonini aniqlash to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Jumladan:

iqtisodiy faol bo'lmagan aholi - mehnat bilan band deb hisoblanmaydigan shaxslar, shu jumladan:

✚ ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar;

✚ uy bekalari va bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar;

✚ ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar.

Shuningdek, mazkur qarorda nazarda tutilayotgan, ishlamayotgan birinchi

va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslardan va yoshiga ko'ra imtiyozli shartlarda pensiya oluvchi shaxslar ish bilan band bo'lmagan aholi tarkibini tashkil etishi mumkin deb hisoblashimiz mumkin[3].

Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

EIP = PS + IW + VUP, bunda:

EIP - iqtisodiy faol bo'lmagan aholi;

PS - ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan o'quvchilar va talabalar;

IW - bolalarni parvarish qilayotgan ishlaymaydigan ayollar;

VUP - uy bekari va mustaqil ravishda ish bilan band bo'lmagan shaxslar, shuningdek, ko'char va ko'chmas mulkdan daromad oladigan ishlaymaydigan shaxslar;

Axborot manbalari:

PS - statistika organlarining ma'lumotlari;

IW - statistika organlarining hisoblangan ma'lumotlari;

VUP - mehnat organlari tomonidan mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar ma'lumotlari[3].

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil yakuni bo'yicha hisobotidan ma'lum bo'lishicha, respublikada jami 19 mln. 998 ming mehnat resurslari bo'lib shundan, 4 mln. 899 ming nafar iqtisodiy nafaol aholi hissasiga to'g'ri keladi. Hududlar kesimida esa, **1-diagramma** orqali batafsil tushuntirilgan[4]. Eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand viloyatida **586 ming** nafar, Toshkent shahrida **526 ming** nafar

va Farg'ona viloyatida **484 ming** nafar iqtisodiy nafaol aholi istqomat qiladi.

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar, uy bekari va bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlaymayotgan ayollar va ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslarni 2024-yil yakuniga ko'ra, **4 mln. 899 ming nafar** ekanligini bilib olamiz.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024-yil yakunlari bo'yicha ochiq ma'lumotlari bazasidan olingan raqamlarga ko'ra, Respublika bo'yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning umumiy soni **4 mln. 945 ming 300 nafar**ni tashkil etadi. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (561,5 ming nafar), Samarqand (532,8 ming nafar) va Qashqadaryo viloyati (460,6 ming nafar) ekanligi **2-diagramma** orqali tahlil qilingan[5].


Daryo internet nashrining 2025-yil 1-iyuldagi sahifalarida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining O'zbekistondagi nogironlar soniga oid hisoboti tahlil qilinadi. Statqo'mga ko'ra, mamlakatda nogironligi bo'lgan shaxslar soni **1 million 20 ming nafar**ni tashkil etgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar soni quyidagi guruhlar asosida taqsimlangan:

- 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalar — 173,3 ming nafar;
- I guruh — 94,2 ming nafar;


- II guruh — 688,1 ming nafar;
- III guruh nogironligi boʻlgan shaxslar soni — 65,2 ming nafar.

Hududlar kesimida tahlil qilinsa, Samarqand viloyatida 109,1 ming nafar, Qashqadaryo viloyatida 106,3 ming nafar va Fargʻona viloyatida 93,7 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxslar istiqomat qiladi. Yildan yilga nogironligi boʻlgan shaxslar soni ortib bormoqda[6]. **1-jadval. 3-diagramma.**



1-diagramma


Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning soni (ming. kishi) O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi 2024-yil hisoboti



2-diagramma

	Hudud nomi	Nogironligi bo'lgan shaxslar soni	Jamiga nisbatan ulushi % da
	O'zbekiston Respublikasi	1 020,8	100,0
1.	Qoraqalpog'iston	68,2	6,7
2.	Andijon	87,6	8,6
3.	Buxoro	60,2	5,9
4.	Jizzax	43,9	4,3
5.	Qashqadaryo	106,3	10,4
6.	Navoiy	47,3	4,6
7.	Namangan	81,4	8,0
8.	Samarqand	109,1	10,7
9.	Surxondaryo	85,1	8,3
10.	Sirdaryo	37,8	3,7
11.	Toshkent v.	74,7	7,3
12.	Farg'ona	93,7	9,2
13.	Xorazm	60,6	5,9
14.	Toshkent sh.	64,9	6,4

1-jadval



3-diagramma

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining 2023-yil hisobotida qayd etilishicha, nogironlikning global darajada ortishiga aholining qarishi, surunkali kasalliklarning ko'payishi, ekologik omillar va tibbiy yordamning yetarli

emasligi sabab bo'lmoqda. Bu tendensiya Markaziy Osiyoda ham kuzatilmoqda [11].

Yuqoridagi statistik ko'rsatkichlarni umumlashtirgan holda quyida aniqlaymiz:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar, uy bekalari va bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar va ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslarni 2024-yil yakuniga ko'ra, **4 mln. 899 ming nafar**;

respublika bo'yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning umumiy soni **4 mln. 945 ming 300 nafar**;

mamlakatda nogironligi bo'lgan shaxslar soni **1 million 20 ming nafarni** tashkil etmoqda.

Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son qaroriga asosan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi, shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar sifatida 2024-yil yakunlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, **kamida 10 mln. 864 ming 300 nafar** aholi favqulodda vaziyatlarga to'g'ri harakat qilishga tayyorlanishi lozim ekanligini aniqlab oldim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisi **2025-yil 1-yanvar 37 mln. 543 ming 200 nafar** bo'lsa, ishlab chiqarish

va xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lmagan aholi, shu jumladan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar va pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar umumiy aholi sonining taxminan, 28-30% qismini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

So'nggi 40 yil ichida ofatlar soni uch baravar ko'paydi. So'nggi ba'zi tarixiy faktlarni eslash shuni ko'rsatadiki, keksa odamlar, ayniqsa jismoniy yoki kognitiv nuqsonlari bo'lganlar, falokatda ayniqsa zaifdirlar. Yaponiyadagi 2011-yilgi zilzila va tsunamiga kelsak, hukumat idoralari 2012-yil avgust holatiga ko'ra, ushbu voqea paytida va keyingi oylarda vafot etganlarning 90% qismi 70 yoshdan oshgan qariyalar ekanligini xabar qilishdi. Tsunami paytida qariyalar o'limining asosiy sababi to'liqlardan qochish uchun vaqt yo'qligi yoki boshqa odamning yordamisiz harakatlana olmaslik edi [7].

Butun dunyoda, yildan-yilga, falokatlar natijasida vafot etganlar va jarohat olganlar orasida o'z jamoalari tarkibida qariyalarning juda yuqori foizi mavjud. Misol uchun, Yangi Orleanda 2005-yilda sodir bo'lgan Katrina to'foni davomida, 71% vafot etganlar qariyalar edi. O'sha vaqtda aholi orasida qariyalar 15% ni tashkil qilgan[7].

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar shuni izohlaydi-ki, favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda ish bilan band bo'lmagan aholi toifalari va ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ish bilan band bo'lmagan aholi toifalari ko'pincha iqtisodiy jihatdan kam

ta'minlangan yoki ijtimoiy yordamga muhtoj bo'ladi. Bu guruhlar favqulodda vaziyatlarda ko'proq yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Ularning ehtiyojlarini o'rganish, ular uchun mos yordam dasturlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Ijtimoiy-demografik xususiyatlar (yosh, jins, ma'lumot darajasi, oilaviy holat va boshqalar)ni hisobga olish orqali favqulodda vaziyatlar uchun tayyorlik dasturlari individual ehtiyojlarga moslashtirilishi mumkin. Masalan, keksalar yoki nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus tayyorgarlik va yordam dasturlari yaratish zarur bo'ladi. Aholining ish bilan band bo'lmagan qatlamlarini o'rganish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va belgilangan resurslarni faqatgina zarur bo'lgan hududlarga taqsimlashda yordam beradi. Bu, ayniqsa, cheklangan resurslarga ega bo'lgan sharoitda samarali bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqot aralash yondashuv asosida tashkil etildi. Unda miqdoriy statistik tahlil hamda sifat jihatidan ijtimoiy-demografik tahlil o'zaro uyg'unlashtirildi. Tadqiqot dizayni ish bilan band bo'lmagan aholining tarkibi, zaiflik darajasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholashga qaratildi. Tadqiqotda Milliy statistika ma'lumotlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Pensiya jamg'armasi Nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha rasmiy hisobotlaridan foydalanildi. Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi soni, pensionerlar soni, nogironligi bo'lgan shaxslar soni, ularning hududlar bo'yicha taqsimotiga aniqliklar kiritildi. Bu ma'lumotlar ish bilan band bo'lmagan aholi toifalarining huquqiy chegaralarini aniqlashda xizmat qildi. Qiyosiy tahlil asosida dunyoda sodir bo'lgan tabiiy ofatlarda jabr ko'rgan aholi takibidagi zaif qatlam ulushiga urg'u berildi. Qonunchilikda "ish bilan band bo'lmagan aholi" toifalarining aniqlanishi, ularning FVdagi maqomi va tayyorlikka qo'yilgan talablar o'rganildi. Integratsiyalashgan hisob-kitob asosida ish bilan band bo'lmagan aholining yakuniy umumiy sonini (10,864 mln) aniqlashga e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tadqiqot davomida olingan statistik ma'lumotlar ushbu toifaga kiruvchi shaxslar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, balki jismoniy, psixologik, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi va ijtimoiy faolligi kabi mezonlar bo'yicha ham yuqori darajada zaif guruh ekanligini namoyon qildi. Bu holat favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ular xavf ostida bo'ladigan asosiy qatlamlardan biriga aylanishiga olib keladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024-yil yakunlari bo'yicha ish bilan band bo'lmaganlar sonining 10,864 milliondan ortiq bo'lishi O'zbekiston demografik tarkibida mazkur toifa juda katta ulushni taxminan 25-30% atrofida ekanligi hamda aholi tarkibida mazkur qatlam ulushining ortib borishi tendensiyasi kuzatilishi ehtimoli yuqoriligini eslatadi. Bu esa davlatning favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish va tayyorlash strategiyasida mazkur guruh uchun alohida yondashuvni talab qiladi. Hududlar kesimida farqlar yanada keskin namoyon bo'ldi. Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri kabi aholisi zich hududlarda ish bilan band bo'lmagan aholi soni eng yuqori. Bu viloyatlar,

ayniqsa, tabiiy xavf omillariga (zilzila, suv toshqinlari, sel, ko'chki) moyil bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Demak, ushbu hududlarda FVga zaif guruhning katta miqdorda to'plangani potentsial xavf darajasini yanada oshiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning aksariyat hududlarida boshpanalar, ogohlantirish tizimlari nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirilmagan.

Ish bilan band bo'lmagan boshqa toifalar - uy bekalari, ishsizlar, vaqtinchalik ishlamayotgan fuqarolar ham axborotga kirish imkoniyati bo'yicha zaif guruh sanaladi. Ularning aksariyati raqamli texnologiyalardan kamroq foydalanishi, internet bilan qamrab olinmagan hududlarda yashashi, rasmiy axborot kanallaridan muntazam foydalanmasligi ogohlantirish tizimlarining ularga o'z vaqtida yetib bormasligiga olib keladi. Bu esa tezkor choralar ko'rish jarayonida kechikishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Tadqiqotdan kelib chiqadigan xulosalar o'rnida aytish mumkinki, favqulodda vaziyatlarga tayyorlash dasturlarida ijtimoiy-demografik xususiyatlarni inobatga olish majburiydir. Yosh, jins, sog'liq holati, oilaviy vaziyat, nogironlik darajasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati kabi mezonlar bo'yicha risklarni baholash, favqulodda vaziyatlarda aholining xavfsizligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, hududiy jihatdan farqlarni hisobga olgan holda resurslarni samarali taqsimlash, zarur hududlarga qo'shimcha tayyorgarlik choralari joriy qilish davlat siyosatining samaradorligini oshiradi.

Shu sababli, davlatning favqulodda vaziyatlar bo'yicha strategik rejalashtirishida ushbu guruhni alohida e'tiborga olish, ularning xavfsizligini ta'minlash va tayyorgarlik darajasini oshirish lozim. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

jahon tajribasini inobatga olgan holda ish bilan band bo'lmagan aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tartibi to'g'risidagi qaror yoki nizom ishlab chiqilishi;

Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Toshkent shahridagi aholi zich hududlarda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik markazlarini zamonaviy ogohlantirish tizimlarini modernizatsiya qilish va resurslarni samarali taqsimlash zarur;

ish bilan band bo'lmagan aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha o'qitish, treninglar va seminarlar orqali bilim darajasini oshirish.

Ish bilan band bo'lmagan aholining ijtimoiy-demografik xususiyatlarini chuqur o'rganish, statistik ma'lumotlarga tayanib, hududiy va toifa bo'yicha tahlil qilish davlat siyosatining favqulodda vaziyatlarda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat inson hayotini himoya qilish, balki tabiiy ofatlar, texnogen va ijtimoiy xavflar yuzaga kelganda jamiyatning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" 1011-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil yakuni bo'yicha hisoboti.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024-yil yakunlari bo'yicha ochiq ma'lumotlari bazasi.
6. Daryo internet nashrining 2025-yil 1-iyuldagi sahifalaridagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining O'zbekistondagi nogironlar soniga oid hisoboti".
7. Xusanova S.I., Sultonov R.B. "Aholini favqulodda vaziyat xavfi yoki yuzaga kelishi to'g'risida xabardor qilishni tashkil etish". Fan, muhofaza, xavfsizlik. Ilmiy-amaliy jurnal. №1(15), 2025 y.
8. Ergashev A. "Aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha tayyorgarligi tahlili". – 2022.
9. [HSOA](#) jurnali Gerontologiya va geriatriya jurnali ISSN: 2381-8662.
10. UNDRR Global baholash hisobotlari-2022. UPSC eslatmalari.